e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/vp045t16

SURXON VOHASINING KO‘HITANG TOG‘ QISHLOQLARI BOG‘DORCHILIGIDA AN’ANAVIYLIK

Amirqulov Muhiddin G‘ulomovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, tayanch doktorant.
e-mail: amirkulovmukhiddin @gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0008-7605-276X

Annotatsiya.
Ushbu maqolada Surxon vohasida joylashgan Ko‘hitang tog‘ qishloqlarining bog‘dorchilik bilan bog‘liq an’anaviy tajribalari, bog‘dorchilikning mahalliy xususiyatlari, xo‘jalik yuritish usullari hamda ular bilan bog‘liq etnomadaniy jihatlar batafsil tahlil qilinadi. Xususan, mazkur hududdagi qishloqlarning tabiiy-geografik sharoiti, iqlimi, suv manbalari va yer tuzilishining bog‘dorchilik tarmoqlari shakllanishiga ta’sirini yoritishga alohida e’tibor qaratiladi.
Kalit so‘zlar: Surxon vohasi, Ko‘hitang tog‘lari, an’anaviy bog‘dorchilik, mahalliy navlar, mevali daraxtlar.

ТРАДИЦИИ САДОВОДСТВА В ГОРНЫХ СЕЛЕНИЯХ КУГИТАНГА СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

Амиркулов Мухиддин Гуломович
Денауский институт предпринимательства и педагогики, докторант (PhD).

Аннотация.
В статье подробно анализируются традиционный опыт садоводства в горных селениях Кугитанга, расположенных в Сурханском оазисе, местные особенности садоводства, методы ведения хозяйства, а также связанные с ними этнокультурные аспекты. Особое внимание уделяется влиянию природно-географических условий, климата, водных ресурсов и особенностей земельных угодий данного региона на формирование и развитие различных направлений садоводства.
Ключевые слова: Сурханский оазис, горы Кугитанг, традиционное садоводство, местные сорта, плодовые деревья.

TRADITIONS OF HORTICULTURE IN THE KUGITANG MOUNTAIN VILLAGES OF THE SURKHAN OASIS

Amirqulov Muhiddin G‘ulomovich
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, PhD Student.

Abstract.
This article provides a detailed analysis of traditional horticultural practices in the Kugitang mountain villages of the Surkhan Oasis, focusing on local characteristics of horticulture, farming methods, and their associated ethnocultural features. Particular attention is paid to the influence of the region’s natural and geographical conditions, climate, water resources, and land characteristics on the formation and development of various branches of horticulture.
Keywords: Surkhan Oasis, Kugitang Mountains, traditional horticulture, local varieties, fruit trees.

Kirish. O‘zbekistonning janubiy mintaqalarida shakllangan an’anaviy bog‘dorchilik madaniyati aholining ko‘p yillik tarixiy tajribasi, tabiiy-geografik va iqlim sharoitlariga moslashuvi bilan bog‘liqdir. Xususan, Surxon vohasining janubiy qismida joylashgan Ko‘hitang tog‘ qishloqlarida bog‘dorchilikning o‘ziga xos mahalliy shakllari vujudga kelgan bo‘lib, ular mazkur mintaqaning relyefi, iqlimi, tuproq tarkibi, suv resurslari va mahalliy aholining bog‘dorchilik an’analari bilan belgilanadi. Mazkur jihatlar Ko‘hitang tog‘ tizmasi bilan bevosita bog‘liq qishloqlarda asrlar davomida shakllangan bog‘dorchilik madaniyatini tarixiy-etnologik nuqtayi nazardan o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Ushbu maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad Surxon vohasidagi Ko‘hitang tog‘ tizmasida joylashgan qishloqlarda aholining bog‘dorchilik bilan bog‘liq shakllangan an’anaviy tajribalarini tarixiy-etnologik jihatdan tahlil qilish, ularning tabiiy-geografik joylashuv bilan bog‘liqligini ochib berish va mahalliy aholining an’anaviy bog‘dorchilikka oid fenologik bilim hamda ko‘nikmalarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko‘hitang tog‘ qishloqlarining an’anaviy bog‘dorchiligiga oid adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Sovet davri tadqiqotlari.
2. Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruhga oid tadqiqotlarda asosiy e’tibor mahalliy aholi xo‘jalik faoliyatining turli sohalari, yer egaligi

ISSN 3060-5059 (Online)

shakllari va qishloq xo‘jaligining ahvoliga qaratilgan. N. A. Kislyakov, Ye. M. Peshereva, N. G. Borozna kabi olimlarning e’lon qilingan tadqiqotlari o‘rganilayotgan hudud aholisining xo‘jalik madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar kiradi. Mazkur guruhga mansub adabiyotlar sovet davriga xos ko‘plab salbiy xususiyatlardan xoli bo‘lib, ulardan biri I. Umarovning “Ko‘hitang tog‘ qishloqlari aholisi moddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasidir. Ushbu tadqiqotda qishloqlarning hudud bo‘ylab joylashuv xususiyatlari va aholining etnik tarkibi, qishloq aholisi urf-odat va marosimlaridagi o‘ziga xoslik hamda umumiylik jihatlari batafsil yoritilgan [2]. Mazkur tadqiqot ishida tog‘ qishloqlarining bog‘dorchilik bilan bog‘liq an’analari batafsil yoritilmagan bo‘lsa-da, muallifning H. Rahmonov va E. Xudoyberdiyev bilan hammualliflikda yozgan “Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (Xatakilar urug‘i misolida)” [3] nomli asarida Ko‘hitang tog‘ tizmasida joylashgan har bir qishloqning tarixi va nomlanishi haqida alohida ma’lumot berilgan. Shuningdek, ushbu asarda qishloqlarning bog‘dorchilik bilan bog‘liq tajribalariga batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Sh. Kichkilovning “Ko‘hitang tog‘ qishloqlari aholisining turmushida an’anaviylik va transformatsion jarayonlar” [4] mavzusidagi tadqiqot ishida tog‘ qishloqlari aholisining dehqonchilik faoliyatida to‘plagan tajribalari va fenologik bilimlari haqida ma’lumot berilgan. Mazkur tadqiqot ishida daraxt ildizi, meva po‘stlog‘i va urug‘idan rang olish jarayonlari haqida ham ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Bundan tashqari, janubiy Surxon vohasi etnografiyasi haqida S. Tursunov va T. Pardayevlarning ishlarida ham xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq muhim ma’lumotlarni uchratish mumkin. Ularning ilmiy ishlarida aholining xo‘jalik hayoti, iqlim sharoiti, iqtisodiy aloqalari, etnik tarkibi, moddiy va ma’naviy madaniyati bilan bog‘liq urf-odat hamda marosimlar yoritilgan. Jumladan, S. Tursunovning “Sherobodliklar” nomli asarida ayrim tog‘ qishloqlarining paydo bo‘lish tarixi, geografik joylashuvi va xo‘jaligi haqida ma’lumotlar berilgan [5].

Shuningdek, mazkur maqolada o‘zbek xalqining an’anaviy marosimlari, milliy qadriyatlari va bayramlariga bag‘ishlangan risola hamda monografiyalardan ham o‘rinli foydalanildi.

Mazkur tadqiqot ishini yoritishda muallif tomonidan olib borilgan dala tadqiqotlari natijalaridan ham faol foydalanildi.

Maqolada umume’tirof etilgan metodlar, jumladan, qiyosiy tahlil, tarixiylik, xolislik va xronologik ketma-ketlik metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

Ko‘hitang tog‘ tizmasi Pomir-Olay tog‘ sistemasining janubi-g‘arbida joylashgan bo‘lib, Boysuntog‘ tizmasining janubiy davomi hisoblanadi. Ushbu tog‘ tizmasining eng yuqori nuqtasi Ayribobo cho‘qqisi bo‘lib, u dengiz sathidan 3137 metr balandlikda joylashgan [6].

Mazkur tog‘ tizmasida joylashgan qishloqlarni geografik jihatdan shimoliy, markaziy va janubiy qismlarga bo‘lish mumkin. Ko‘hitang tog‘ining shimoli-sharqidagi qishloqlarga Sho‘rob, Sayrob, Munchoq; markaziy va g‘arbiy qismlaridagi qishloqlarga Xatak, Chilonzor, Kallamozor, Loyliq, Panjob, Gazak, Xomkon, Tangidevon, Bog‘lidara, Laylagan, Xo‘jaig‘or, Egarchi, Kalapo‘shqiya, Bedak, Chohak, Zarautsoy, Yoriqsoy, Chinor, Xo‘jaulkan, G‘urjak hamda Xo‘janqon; janubiy va sharqiy qismlaridagi qishloqlarga esa Poshxurd, Maydon, Kayrit, Qorabog‘, Zarabog‘, Sherjon, Kampirtepa, Qizilolma, Vandob, Korizot, Shalqon kabi yirik qishloqlar va ularning tarkibidagi ko‘plab mayda qishloqchalar kiradi [7, 13-b.].

Ko‘hitang tog‘ tizmasida joylashgan qishloqlar aholisi qadimdan bog‘dorchilikka katta e’tibor qaratganligi sababli qishloq nomlarida ham “bog‘” so‘zidan foydalangan. Masalan, Zarabog‘, Navbog‘, Qorabog‘ va Bog‘ildara kabi nomlardan ham bilish mumkinki, ushbu qishloqlar aholisi azaldan bog‘dorchilik bilan faol shug‘ullanib kelgan.

Ular asosan tog‘li hududlarda yashaganligi tufayli xo‘jaligida dehqonchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik yetakchi tarmoqlar hisoblangan. O‘z-o‘zidan ayonki, bog‘dorchilik rivojlangan joyda muqim o‘troq hayot tarzi vujudga keladi va shu asosda hunarmandchilik hamda to‘qimachilik kabi xo‘jalikning muhim tarmoqlari shakllanadi. XX asr boshlarida Boysun bekligidagi Xatak, Xo‘jaanqo, Bedak, Sherjon, Zarabog‘ va Zarautsoyda, shuningdek, yuqori Sheroboddaryoda joylashgan Qizilnovir, Ko‘mirchi, Ko‘ksoy va Kentalada yashovchi qatag‘onlar o‘ziga xos xo‘jalik tizimiga ega bo‘lganlar. Ularning xo‘jaligida ham dehqonchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik yetakchi tarmoqlar hisoblangan.

NATIJALAR

Ko‘hitang tog‘ining yirik qishloqlaridan biri Poshxurt qishlog‘idir. Mazkur qishloqda joylashgan bog‘larda asosan uzum, xurmo, olxo‘ri, olcha, anor, o‘rik, yong‘oq, olma, gilos, nok va behi kabi mevalar yetishtiriladi. Qishloq bog‘lari asosan yer osti suvlaridan maxsus artezian quduqlari orqali sug‘oriladi. Ayni paytda yer osti suvlarining kamayishi oqibatida qishloqda suv tanqisligi kuzatilmoqda. Natijada bog‘lardagi aksariyat daraxtlar qurib qolgan bo‘lib, yangi ildiz otgan daraxtlar ham quriy boshlagan.

Qishloq bog‘dorchiligi bir xil meva turiga ixtisoslashmagan bo‘lib, bog‘larda turli xil mevali daraxtlar mavjud. Masalan, olib borilgan dala tadqiqotlari davomida kuzatilgan bog‘da ertapishar olma, anor, behi, olxo‘ri, nok, gilos va o‘rik daraxtlari, shuningdek, uzumzor mavjudligi aniqlandi. Toklarni 2023-yildagi anomal sovuq urgan. Ushbu bog‘ning katta qismi qurib qolgan. Suv yetishmasligi sababli toklar oxirgi ikki-uch yil davomida hosil bermayotganligi kuzatildi. Qishloq bog‘bonlarining ma’lumotlariga ko‘ra, sug‘orish faqat yer sirtidan amalga oshirilmoqda va yer ostidagi namlikning kamayishi tufayli daraxtlar ildizlari yetarlicha namlik ololmayapti. Yer sirtidan sug‘orish daraxtlarning suvga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirmaydi. Shuningdek, yoz faslining nisbatan issiq o‘tishi ham daraxtlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Qishloqning yuqori qismida gilos va ertapishar olma bog‘larini uchratish mumkin, lekin ular ham yosh bog‘lar hisoblanadi [8].

Shuningdek, ushbu qishloqda issiqxonalarda limon yetishtiriladi. Bog‘dorchilikda lalmikor yerlardan va sug‘orish suvidan foydalaniladi [9, 200-b.].

Ko‘hitangning yana bir yirik qishlog‘i bo‘lgan Zarabog‘da bog‘dorchilik qadimdan yuqori darajada rivojlanib kelgan.

Etnolog olim S. Tursunovga ko‘ra, Zarabog‘ qishlog‘i XVIII asrda paydo bo‘lgan bo‘lib, uning shakllanishi asosan Poshxurd qishlog‘i bilan bog‘liq. Rivoyatlarga ko‘ra, poshxurdlik aka-ukalar Poshxurdning yuqori shimoliy qismida joylashgan to‘qayzorga ov qilish uchun borganlarida, kattasi yo‘lbars tomonidan g‘ajib tashlanadi. Akasining qasosini olish maqsadida uka to‘qayzorga o‘t qo‘yib, uni yoqib yuboradi va akasining xotirasini abadiylashtirish maqsadida to‘qayzorni o‘zlashtirib, katta bog‘ga asos soladi. “Zar” — oltin, “bog‘” — to‘qchilik ramzi sifatida qishloq Zarabog‘ deb ataladi. Ushbu qishloq tog‘ ichkarisida, Poshxurd qishlog‘ining yuqori qismida joylashgan bo‘lib, uning nomlanishi toshloq hudud bilan ham bog‘lanadi. Mahalliy aholi qishloq nomini “zarang” va “bog‘” so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan deb tushuntiradi [10, 103, 178-b.].

Bu qishloqda ham yirik bog‘lar kam, mavjud bog‘lar esa aholining shaxsiy xo‘jaliklarida joylashgan bo‘lib, daraxtlar tartibsiz holatda ekilgan. Asosan, yong‘oq, nok va gilos kabi daraxtlar yetishtiriladi.

Zarabog‘ qishlog‘i imomining ta’kidlashicha, uning bog‘i va hovlisida ekilgan daraxtlar asosan payvand qilingan mevali daraxtlar bo‘lib, payvand materiallari Denov va Sariosiyo tumanlarining tog‘li hududlaridan olib kelingan. Payvandlash yaxshi samara bergan, mevalar serhosilligi va shirin ta’mi bilan boshqa mahalliy navlardan ajralib turadi. Ushbu qishloqda yirik bog‘lar kam bo‘lib, aholi asosan o‘z hovlilarida bog‘ yaratgan. Mazkur bog‘larda asosan may gilos, nok, olma, yong‘oq va xurmo kabi mevali daraxtlar mavjud. Olmaning xuboni va golden kabi navlari ko‘proq ekiladi. Suv kam bo‘lganligi sababli ushbu qishloqda may giloslar iyun oyida pishadi. Nokning yarim pakana, noshpo‘ti va ertapishar navlari ekiladi. Shuningdek, ushbu qishloqda yovvoyi do‘lana ham o‘sadi. Limon, mandarin va apelsin kabi subtropik mevalar ham issiqxonalarda yetishtiriladi. Mandarinning ikki xil navi ekiladi. Ushbu mevalarning ko‘chatlari Denov tumanidan olib kelingan. Bog‘lar buloq suvidan sug‘oriladi. Aholi mevalarni Angor bozoriga olib borib sotadi [11].

Ko‘hitang tog‘ tizmasida joylashgan qishloqlar aholisi daraxt ekishdan oldin tabiat hodisalarini muntazam kuzatib borgan. Ko‘chat uchun yer tanlashda tuproqning unumdorligi, yovvoyi o‘tlardan tozaligi, yerning sho‘rlanmaganligi, namlikning yetarli ekanligi kabi bir qator jihatlarga e’tibor berganlar. Masalan, kechasi oy yorug‘ida daraxt ekilmagan. Bunga sabab, mahalliy aholining qarashlariga ko‘ra, oy yorug‘ida ekilgan daraxtning ildizlari ko‘p bo‘lib, yaxshi hosil bermagan. Shuningdek, aholi daraxt ko‘chatlarini payvand qilishda ham o‘ziga xos an’anaviy tajribaga ega bo‘lib, payvandlashni asosan yovvoyi daraxt ko‘chatlariga amalga oshirgan. Chunki mahalliy tajribaga ko‘ra, yovvoyi daraxtga qilingan payvand yaxshi hosil bergan va mevalari shirin bo‘lgan.

Bundan tashqari, aholi daraxtlarni ko‘chirib o‘tkazishni asosan kuz faslining oxiri, qish va bahor faslining ilk kunlarida amalga oshirgan. Mahalliy aholining qarashlariga ko‘ra, ushbu muddatlardan oldin yoki keyin ko‘chirib o‘tkazilgan daraxtlarni sovuq urishi mumkin bo‘lgan.

XULOSA

Surxon vohasining boshqa tog‘li qishloqlari singari, Ko‘hitang tog‘ tizmasida joylashgan qishloqlar aholisi ham asosan o‘troq hayot kechirib, xo‘jaligining asosini sug‘orma dehqonchilik, bog‘dorchilik hamda chorvachilik tashkil etgan. Ushbu qishloqlarning tabiiy-geografik joylashuvi, yog‘ingarchilik miqdorining ko‘pligi, ya’ni tabiiy-iqlim sharoitining qulayligi bois mazkur hududlar aholisi qadimdan bog‘dorchilik bilan faol shug‘ullanib kelgan.

Dala tadqiqotlaridan olingan natijalar Ko‘hitang tog‘ tizmasi qishloqlari bog‘dorchiligida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bog‘dorchilik ko‘nikmalari hamda mahalliy aholining agrotexnik tajribalari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, yer maydonlaridan tabiiy-geografik joylashuv va iqlim sharoitiga mos ravishda foydalanish, tog‘ yonbag‘irlaridagi bo‘sh yerlarni o‘zlashtirish, suvdan tejab foydalanish, mevali daraxtlarni hududning mikroiqlim xususiyatlariga qarab tanlash hamda ularni mavsumiy parvarishlash kabi amaliyotlar mahalliy aholining uzoq yillik tajribasi asosida takomillashib borgan. Bu holat tog‘ qishloqlari aholisining tabiat bilan o‘zaro munosabatlari va xo‘jalik faoliyatida ekologik moslashuv tamoyillari muhim o‘rin egallaganini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кисляков Н. А. Патриархально-феодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начале XX века. – Москва–Ленинград, 1962.

2. Пещерева Е. М. Бухарские золотошвеи // Сборник Музея Института антропологии и этнографии. – Москва–Ленинград, 1959. – Т. 16.

3. Борозна Н. Г. Социалистические преобразования в хозяйстве и быте узбеков-дурменов долины Кафирнигана и Бабатагских гор: автореф. дис. … канд. ист. наук. – Москва, 1966.

4. Umarov I. Ko‘hitang tog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022.

5. Umarov I. va boshqalar. Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (Xatakilar urug‘i misolida). – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2024. – 292 b.

6. Kichkilov Sh. Ko‘hitang tog‘ qishloqlari aholisining ijtimoiy turmushida an’anaviylik va transformatsion jarayonlar: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2025. – 52 b.

7. Ko‘hitang tizmasi [Elektron resurs]. – URL: https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kohitang-tizmasi-uz/ (murojaat sanasi: 30.07.2026).

8. Kichkilov Sh. Ko‘hitang tog‘ qishloqlari aholisining ijtimoiy turmushida an’anaviylik va transformatsion jarayonlar: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2025. – B. 13.

9. Dala yozuvlari. Sherobod tumani, Poshxurd qishlog‘i. – 2026.

10. Tursunov S. Sherobodliklar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 200, 103.